

LIDERNING STRATEGIK QAROR QABUL QILISH JARAYONIDAGI ROLI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Inoyatova Shoxista Nishanbayevna

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
MBA Liderlik (Leadership) OL-1uz-25S-e gurux
magistr tinglovchisi,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada liderning strategik qaror qabul qilish jarayonidagi roli nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Strategik qaror qabul qilish jarayoni tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga erishishida asosiy vosita sifatida qaraladi. Maqolada liderning ushbu jarayondagi vazifalari, qaror qabul qilish strategiyalari, ijtimoiy va korporativ loyihalarda amaliy misollar keltiriladi. Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy tajribalar orqali liderlikning samaradorligini oshirish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: liderlik, strategik qaror qabul qilish, strategik boshqaruv, ijtimoiy loyihalar, korporativ boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the role of leadership in the process of strategic decision-making from theoretical and practical perspectives. The strategic decision-making process is considered a key tool for achieving the long-term goals of an organization. The article examines the responsibilities of leaders, decision-making strategies, and provides practical examples in social and corporate projects. Furthermore, it explores ways to enhance leadership effectiveness through both Uzbek and international experiences.

Keywords: : leadership, strategic decision-making, strategic management, social projects, corporate governance.

Kirish (Introduction)

Strategik qaror qabul qilish tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga erishish va resurslarni samarali boshqarish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Lider ushbu jarayonda faqat qaror qabul qiluvchi emas, balki strategik yo'nalishni belgilovchi, jamoani rag'batlantiruvchi va resurslarni muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi. Zamonaviy nazariya va amaliyot shuni ko'rsatadiki, samarali liderlik va strategik qaror qabul qilish o'rtasidagi bog'liqlik tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. O'zbekiston va xorij tajribasi shuni isbotlaydiki, strategik qarorlar muvaffaqiyatini oshirishda liderning roli beqiyosdir.

METHODS: Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi: Nazariy tahlil Liderlik, boshqaruv, tashkiliy psixologiya va menejment bo'yicha mahalliy va xorijiy manbalar o'rganildi. Taqqoslash usuli Turli boshqaruv modellari va liderlik konsepsiyalari

solishtirildi. Strukturaviy-tahliliy yondashuv Rahbarning kasbiy, shaxsiy, ishbilarmonlik va tashkiliy fazilatlarini tizimli tahlil qilindi. Vaziyatli tahlil (case-analysis) Murakkab sharoitlarda tezkor qaror qabul qilishning real misollari asosida liderlik samaradorligi baholandi.

RESULTS: Rahbarning «kasbiy kompetentligi», «tahliliy fikrlashi», «strategik qaror qabul qilish» qobiliyatlari murakkab sharoitlarda eng muhim omillardan ekanligi aniqlandi. Liderlik — rahbarlikdan farq qiluvchi alohida boshqaruv funksiyasi. Liderlik faqat rasmiy vakolatga emas, balki shaxsning ta'sirchanligiga, ruhiy yetakchilikka, odamlarni ruhlantirish qobiliyatiga asoslanishi aniqlandi. Tezkor qaror qabul qilishning asosiy omillari aniqlashtirildi. Tezkor vaziyatni baholash; tavakkalchilikni hisoblash; jamoaning resurslariga tayangan holda qaror qabul qilish; axborotni tezda saralash va tahlil qilish; jamoada barqaror ruh yaratish.

Muxokama (Discussion)

Strategik qaror qabul qilish nazariyasi bir nechta asosiy yondashuvlarga asoslanadi:

1. Ratsional qaror qabul qilish nazariyasi – qarorlar aniq ma'lumotlar va tahlillarga asoslanadi. Sofistikatsiyalangan qaror qabul qilish – muammolar murakkab va noaniq bo'lgan hollarda lider tajriba, intuiciya va ekspert baholaridan foydalanadi.

2. Ijtimoiy va institutsional yondashuv – qaror qabul qilish jarayonida jamoa, manfaatdor tomonlar va korporativ madaniyat muhim ahamiyatga ega.

Nazariy jihatdan, lider strategik qarorlarni quyidagi bosqichlarda qabul qiladi: muammoni aniqlash, ma'lumotlarni yig'ish, alternativalarini ishlab chiqish, baholash, qaror qabul qilish va natijalarni monitoring qilish.

O'zbekiston misolida, masalan, "Mahalla" jamg'armasi tomonidan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda rahbarlar mahalliy sharoitlarni chuqur tahlil qilib, resurslarni oqilona taqsimlash va jamoani motivatsiya qilish orqali loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlaydilar. Shu bilan birga, Toshkent shahridagi ekologik loyihalarda rahbarlar strategik qarorlarni qabul qilib, yashil hududlarni rivojlantirish va ijtimoiy ta'sirni oshirishga muvaffaq bo'lmoqda[1].

Xorijiy tajribada esa, masalan, UNICEF va Bill & Melinda Gates Foundation ijtimoiy loyihalarda rahbarlar strategik qaror qabul qilish orqali global ijtimoiy muammolarni hal qilishda samarali natijalarga erishadi. Tesla va Microsoft kabi korporativ loyihalarda strategik qaror qabul qilish rahbarlarning innovatsion yechimlarni joriy etish, resurslarni optimallashtirish va loyihalarning muvaffaqiyatini ta'minlash imkonini beradi[2].

Nazariya va amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, liderning strategik qaror qabul qilishdagi roli quyidagi jihatlarda ifodalanadi:

- Uzoq muddatli strategik yo'nalishni belgilash;

- Qaror qabul qilish jarayonida ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash;
- Jamoani boshqarish va motivatsiya qilish;
- Resurslarni samarali taqsimlash va monitoring qilish;
- Innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish.

O‘zbekiston va xorij tajribalari liderlikning ushbu omillari ijtimoiy va korporativ loyihalarda muvaffaqiyatni oshirishda universal ekanligini ko‘rsatadi.

Har qanday rahbar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak, bu unga mehnat jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi, xodimlarning ishga qiziqishni oshiradi va zarur tashkiliy ko‘nikmalarga asoslangan mehnat motivatsiyasini shakllantiradi. Bunda rahbarning quyidagi tashkiliy bilim va ko‘nikmalari qo‘l keladi:

- muammolarni hal qilish yo‘llarini topish qobiliyati;
- kadrlarni tanlash va tashkil etish qobiliyati;
- tushunarli va aniq buyruqlar berish qobiliyati;
- mehnat jarayoniga boshqalarni jalb qilish qobiliyati;
- odamlarning his-tuyg‘ulari va xulq-atvoriga ta’sir qilish qobiliyati

Lider tabiatan rahbarga qaraganda barqaror emas. U eng avvalo muayyan faoliyat va ijroni amalga oshiradi, so‘ngra insonlar oldiga guruh normalari va strategik maqsadlarni hisobga olgan holda vazifalarni qo‘yadi[3].

Xulosa: Lider strategik qaror qabul qilish jarayonida tashkilotning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Nazariya va amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, samarali lider qarorlarni aniq va ratsional qabul qilish, jamoani rag‘batlantirish va resurslarni optimal boshqarish orqali loyihalarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. O‘zbekiston va xorij misollari strategik qaror qabul qilish jarayonida liderlikning ahamiyatini yanada mustahkamlaydi va uni global va mahalliy ijtimoiy va korporativ loyihalarda universal element sifatida ko‘rsatadi.

References

1. Армстронг М., Тейлор С. Практика управления человеческими ресурсами. Перевод с английского. Издательство – Питер. 2018. – 1040 с.
2. Бирман Л. А. Управление человеческими ресурсами: учебное пособие / Л. А. Бирман. — М.: Издательский дом “Дело”. РАНХиГС, 2017. – 346 с.
3. Гончарова Н. В. Управление человеческими ресурсами организации в условиях современного рынка труда : учебное пособие / Н. В. Гончарова, Л. В. Дайнеко, Е. В. Зайцева. под обо‘. ред. Е. В. Зайцевой/– Екатеринбург : Изд–во Урал. ун–та, 2021. – 162 с.

4. Qodirov T.U. Inson resurslarini boshqarish. Darslik.// T.U. Qodirov. – T.: Impress media, 2025. -566 bet.
5. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.
6. Suyunov D.X., Qodirov T.U., Umarova R.Z. Boshqaruv etikasi va korporativ madaniyat. Darslik: T.: 2025, 475 bet.
7. Suyunov D.X., E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.
8. Suyunov D.X., S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Дарслик–Тoshkent 2022. 450 бет.
9. Suyunov D.X., A.T. Kenjabayev, A. Ro‘ziyev Elektron tijorat. 2023. 450 bet.